

Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish mazmuni.

Содержание нравственного воспитания детей дошкольного возраста.

The content of the moral education of preschool children.

JDPU,,Maktabgacha ta'lim metodikasi'' kafedrası o'qituvchisi:

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna.

JDPU,,Maktabgacha ta'lim fakulteti'' 538-22-guruh talabasi:

O'ng'arova Gulshona Soat qizi.

Annotatsiya: Mening ushbu maqolamda bolalarga axloqiy tarbiya berishning ahamiyati haqida gap boradi. Yana, buyuk mutafakkirlarning axloq-odob haqida bildirgan fikirlari ham o'rin egallagan.

Аннотация: В этой моей статье говорится о важности нравственного воспитания детей. Кроме того, имели место и мнения, высказанные великими мыслителями об этике.

Annotation: This article of mine talks about the importance of the moral education of children. In addition, there were opinions expressed by great thinkers about ethics.

Kalit so'zlar: axloqiy bilim, axloqiy muhit, axloqiy his-tuyg'u, odob, axloq, axloqiy tarbiya.

Ключевые слова: нравственное знание, нравственная среда, нравственное чувство, нравы, нравственность, нравственное воспитание.

Key words: moral knowledge, moral environment, moral feeling, manners, morality, moral education.

„Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir“.

Alisher Navoiy

Axloq (arabcha – xulq - atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma'aviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruxiy va jismonan yetukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq-shaxs yoki guruh faolyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mazmuni. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchunгина emas, balki

ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ilgari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy harakterga ega, ular alohida munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar axloqiy kategoriya deb ataladi.

Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) – birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi. Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir. Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloqiy tarbiya – yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek, ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish.

Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqazo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) bolalarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- g'oyaviy va tarbiya ishining ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini xurmat qilgan xolda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish;
- bolalarning faolligi;
- oila va MTTlarining tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- bola shaxsidagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutish.

Axloqiy tarbiya printsiplarini pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amaga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) bolalarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- 1) kichik, o'rta, katta guruh bolalari uchun sodda elementlar axloqiy tushunchalar xaqida ma'lumot berish;
- 2) har bir o'rgatiladigan u yoki bu fazilatlarni rasmlar, multik tasmalar, diopozitivlar va bolalarni jonli xarakatlari orqali tushuntirish;
- 3) bola doimiy ravishda "nima yaxshi-yu, nima yomon?" so'zining ma'nosini anglab o'z fikrini sodda bayon etishi".

Axloqiy tarbiyaga zamonaviy (shakllantiruvchi, ma'daniyat shunoslik, aksiologik, ijtimoiylashtiruvchi, germevtik, sinergetik, antropologik) yondoshuvlar tahlili axloqiy tarbiyaning quyidagi pedagogik sharoitlarini samarali vositalar sifatida ko'rsatish uchun asos bo'ladi:

- o'yin, muloqot, faoliyat jarayonida tabiiy ijtimoiy axloqiy moslashuv;
- psixologik muhitni yaratish;
- dialog, hamkorlik;
- axloqiy qoidalar, hodisalarga qadriyatli munosabatni shakllantirish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilish;

- ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirish;
- axloqiy tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchlari sifatida qarama-qarshiliklarni aniqlash va bartaraf qilish;
- emotsional kechinmalarni uygʻotish;
- tarbiyalanuvchilarning ichki potensialini ochib berish;
- axloqiy oʻzgarishlarni doimiy tashxislash.

Amir Temurning vasiyatlaridan xalqiga cheksiz sodiqligini, millatini ulugʻlaganini, ozodlik uchun kurashuvchan, axloqiy madaniyati yuksakligini koʻrish mumkin: «Millatning dardiga darmon boʻling. Zaiflarni qoʻriqlang, yoʻqsinlarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz boʻlsin».¹

Ota-bobolarimizning asrlar davomida toʻplagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etgan yodgorliklar orasida Xorazm vohaasi hududida yaratilgan bebaho maʼnaviy obida «Avesto» kitobi alohida oʻrin tutadi. Ana shunday oʻlmas asori atiqalar bu koʻhna oʻlkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud boʻlganidan guvohlik beradi. «Avesto»ning tub maʼno mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan boʻlsak, unda hozirgi zamon uchun ibrat boʻladigan axloqiy saboqlar borligini koʻrish mumkin.

Maʼlumki har bir xalqning oʻz afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari boʻladi. SHu maʼnoda xalq ogʻzaki ijodining noyob durdonasi boʻlmish «Alpomish» dostoni millatimizning oʻzligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan qahramonlik qoʻshigʻidir. Bu mumtoz asarda tarix toʻfonlaridan, hayot momot sinovlaridan omon chiqib, oʻzligini saqlagan, el-yurtimizning bagʻrikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarini oʻz ifodasini topgan. SHu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi².

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud Ahloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va toʻgʻri soʻzlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida oʻsayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida eʼtibor beriladi.

Bolani axloqiy jihatdan yetuk qilibtarbiyalash uchun unga avvalo axloqiy muhit yaratish zarur. Axloqiy muhitga, jamoaviy muhitni misol, qilib, keltirishimiz mumkin. Bola jamoa boʻlib ishlaganda, jamoadagi oʻrnini, vazifasini his qilib, jamoasi haqida qaygʻurishga, jamoasi yutugʻidan xursand boʻlishni oʻrganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.Qodirova . “Maktabgacha pedagogika” Toshkent 2019-yil.
2. Muslimov N. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” Toshkent 2015 y
3. Musurmonova O. “Umumiy pedagogika” Toshkent 2020-yil.
4. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosliklari. *Мактабгача таълим журна*ли, 3(Preschool education journal).
5. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o'ziga xos xususiyatlari. *Мактабгача таълим журна*ли, 3(Preschool education journal).
6. Qilichova, M. X. (2021)Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning xorij davlatlaridagi ilg'or texnologiyalari. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-746 bet. Qilichova, M. X. (2021). Ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsion yondashuvning mazmuni. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 917-921.